



"Boshlang'ich ta'lim fan oyligi rejasi va metodik qo'llanma"

2020 yil

Sirdaryo viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi
Metodik xizmat bo‘limi

**"Boshlang‘ich ta’lim fan oyligi rejasi
va metodik qo‘llanma"**

metodik tavsiya.

Tuzuvchilar:

Absatova Go‘zal

Sardoba tumani boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi metodisti

Babajanova Shahnoza

Guliston tumani boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi metodisti

Taqrizchi

Davranova Gulsara

Sirdaryo viloyati Xalq ta’limi
boshqarmasi metodik xizmat
bo‘limi metodisti

Metodik tavsiya sentabr - boshlang‘ich ta’lim fan oyligini tashkil qilish va
o‘tkazish bo‘yicha namunaviy ish reja va metodik tavsiyani o‘z ichiga olgan
bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, fan
metodistlari uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

Bugungi davr talabi ta’lim sifatini ko’tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish uchun yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab berdi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va h.k ishlar belgilab olindi.

Konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo‘yicha yangi o‘quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga konsepsiaga ko‘ra o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko’tariladi. O‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullari joriy etiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi mazmuni sifat jihatdan yangilash yo‘llari ko‘zda tutiladi.

Prezidentimiz bola tarbiyasi haqida shunday so‘zlarni aytadi: “*Mustaqil o‘ylay oladigan, tafakkur yuritib to‘g’ri maqul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak*”. Shunga, binoan Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish, bunda, yoshlarga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg‘u berish maqsadida “Beshta muhim tashabbus” ni ilgari surgan edi. Ushbu “Beshta muhim tashabbus” ta’limning barcha sohalariga qartilgandir. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish chora-tadbirlari haqida fiklar yuritilgan. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarining bugungi qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq.

Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlod, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini, o’zini-o’zi anglash salohiyatini shakllantirish va

o'stirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish, ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishlari, jamiyatda o'z munosib o'rmini egallahsha qodir bo'lган, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda boshlang'ich fanlarning (o'qish, matematika, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, musiqa, tarbiya) o'rni beqiyosdir.

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishni talab etadi.

Umumta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z vaqtida metodik yordamni tashkil etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ijrosini i ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri 2020-yil 13-avgust kuni 183-sonli buyrig'ida bir qator vazifalarni belgiladi. Jumladan,

Fan oyliklari:

- Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirish, izlanuvchan, tashabbuskor va ijodkor o'qituvchilarni aniqlash, ularning tajribasini o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan metodlarni takomillashtirish maqsadida fan oyliklari o'tkaziladi.
- Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida fan oyliklari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

T/r	Fan va yo'nalish nomi	O'tkazish muddati
1	Boshlang'ich ta'lim	Sentabr
2	Ona tili va adabiyot, O'zbek tili	Oktabr
3	Rus va xorijiy tillar	Noyabr
4	Tarbiya va ijtimoiy fanlar(tarix, davlat va huquq asoslari)	Dekabr
5	Tabiiy fanlar (fizika, kimyo,biologiya)	Yanvar
6	Aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari)	Fevral
7	Geografiya va iqtisodiyot	Mart
8	Amaliy fanlar (tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa madaniyati, texnologiya)	Aprel
9	Jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	May

Fan oyligini o'tkazishdan maqsad – dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni ta'lim tarbiyadagi ahamiyati, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilim samaradorligini ko'tarish, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari bilan doimo tanishib borish, o'rganishga bo'lgan intilishlarini o'stirish, o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligini targ'ib etish, fanlar bo'yicha o'quv metodik ishlarni jonlantirish, o'qituvchilar ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilarni aniqlash, ularning tajribalarini o'rganish va targ'ibot qilish, ta'lim jarayonida qo'llayotgan uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Fan oyligi ta'lim muassasalaridagi o'quv tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy izlanishlari va mehnatlarini ro'yobga chiqarish omili hamdir. Shuni aytish joizki, boshlang'ich ta'lim mutaxassislari o'rtasida boshlang'ich fanlarning o'ziga xos xususiyatlari, murakkabligi, o'zlashtirishlik darjasи, hayotdagi o'rni haqida turli xil fikr-mulohazalar, bahs-munozaralarga olib kelishi mumkin. Tashkil etilajak fan oyliklari esa bu yo'naliishga oydinlik kiritish bilan birga, sohadagi mavjud o'ziga xoslikni, yangiliklarni ham namoyon etadi.

Fan oyligi davomida maktablarning pedagogik jamoasi faolligi, mahoratli kadrlar bilan ta'minlanganligi, boshlang'ich sinf xonalarining zarur ko'rgazmali-didaktik materiallar bilan jihozlanishi, ota-onalar bilan matabning hamkorligini jonlantirish, ularni fandagi yangiliklar, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quvchilarning o'zlashtirish va bilim samaradorligi ko'rsatkichlari bilan tanishtirish kabilarga qaratilgan qator ishlarni amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an'anaviy va noan'anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkillashtirish va o'quvchilarni kreativ fikrlash sifatlarni shakllantirishdir.

O'quvchilarning darslarda va to'garaklarda faol ishtirok etishlariga erishish yo'llaridan biri bu fan oyliklarini yuqori darajada o'tkazishdan iborat.

"Fan oyligi" ni mazmunli, yuqori saviyada o'tkazishda turli bayramlar, tadbirlar, ochiq darslar, uchrashuvlar, sayohatlar, musobaqalar, tanlovlар, namunaviy mediyadarslar hamda o'quvchilarning nazariy bilimlarini boyituvchi har xil musobaqalarini tashkil etish lozim.

Mazkur oylik davomida o'quvchilarning ommaviyligini yanada oshirish maqsadida turli yo'naliislarda musobaqalar, tanlovlar tashkil etish va unga barcha o'quvchilarni qamrab olinishi kerak.

Boshlang'ich ta'lism fan oyligini o'tkazishdan maqsad:

1. Fan oyligi davomida o'quv-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir etuvchi tadbirlar o'tkazish;
2. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlarini har tomonlama rivojlantirish;
3. Boshlang'ich fanlar o'qitilishida o'quvchilarning tafakkurini ko'chaytirish maqsadida to'garak mashg'ulotlarida masalalar yechish texnologiyalariga e'tiborni qaratish;
4. Dars jarayonida axborot kommunakitsion texnologiyalardan foydalanish orqali iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni yanada takomillashtirish;
5. O'quvchilarning fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
6. Fan oyligi davomida tajriba almashish maqsadida, ta'lism-tarbiyada yaxshi samara berayotgan, olib borilayotgan ishlar, ilg'or ish tajribalar yuzasidan materiallarini ta'lism portallariga joylashtirib borish maqsadga muvofiq.

Umumiy o'rta ta'lism maktablarida fan oyliklarini o'tkazishda quyidagilarni amalga oshirishga e'tibor qaratilishi lozim:

1-yo'nalish "Fan oyligi" ning ochilishi:

- fan oyligiga mos ravishda umumiy o'rta ta'lism maktablarini kirish qismi, yo'lakchalar, sinf xonalar har xil bezaklar, devoriy gazetalar bilan bezash;
- ta'lism muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining sifatini, fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish;
- ta'lism muassasasida fanlarni o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlarni aniqlash va ta'lism-tarbiya jarayonidagi natijalarni targ'ibot qilish;
- pedagoglarning ijodiy faolligini oshirish, ularning ish tajribalarini o'rganish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning o'quv jarayoni bilan uzviyligini ta'minlash;
- o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy hamkorligini tashkil etish;
- DTS va o'quv dasturlari asosida o'quvchilarning mazkur fanlardan egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi aniqlash;
- maktablarda o'tkazilgan turli hil ko'rik-tanlovlardan natijalari tahlillari asosida o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- fan oyliklari yakunida umumiy o'rta ta'lism maktablarining Metodbirlashmasi rahbari tomonidan ma'lum bir fan o'qituvchisining ish tajribasini ommalashtirish bo'yicha matabning pedagogika kengashiga tavsiya etishi mumkin.

2- yo'naliш “Ochiq darslar” ni tashkil etish:

- “Ochiq darslar” ni tashkil etishda o'qituvchilar sinflar kesimida aniq belgilangan mavzular bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish yuzasidan dars jadvalini belgilash;
- Boshlang'ich ta'lif fanlari bo'yicha ochiq darslarni o'tkazishda axborot kommunikatsion hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, mashg'ulotlarni tashkil etish;
- Boshlang'ich ta'lif fanlaridan yangicha metodlardan dars jarayonida samarali foydalanish usullarini namoyish eta bilish;
- Ilg'or pedagogik texnologiyalar singdirilgan dars ishlanmalari, videoroliklarni tayyorlash va metodik birlashmalarda muhokama qilinib, ulardan eng yaxshi dars ishlanmalarini, videoroliklarni telegram kanallariga joylashtirish;
- Maktab rahbariyati tomonidan ilg'or ish tajribalarni o'rganish va ommalashtirish hamda fan oyligi doirasida maqolalarni ommaviy axborot vositalari orqali chop ettirishga erishish.

3- yo'naliш “Sinfdan tashqari ishlар” ni tashkil etish:

Fan oyligi davomida ish rejasiga kiritilgan ko`rik-tanlovlар, fan kechalari, qiziqarli bahs-munozaralar tadbirlar, suhbatlar, sayohatlar, viktorinalarnio'tkazishda xorijiy (ingliz, fransuz, nemis) tillardan foydalanilgan holda tayyorlash va o'tkazishga erishish kerak. Masalan:

- Mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shahar, tuman markazlaridagi ko'ngilochar joylarga sayohat tashkillashtirish, tuman, shaharda taniqli bolalar shoirlari, yozuvchilar, taniqli insonlarni, ustoz-shogird yo'naliшida maktabda ishlab ketgan faxrli ustozlar bilan “Ustozni qadrlaymiz” shiori ostida uchrashuvlarini tashkil etish;
- Maktabda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazish maqsadida fan to'garaklarida “Eng namunali to'garak ishlanmasi” tanlovini o'tkazish;
- O'quvchilarning ijodiy ishlari (qo'lda yasalgan va chizilgan ijodiy ishlari) yuzasidan tanlovlар o'tkazish;
- Maktabda ochiq darslar, fanlarga oid kitob ko'rgazmalari tashkil etish;
- Boshlang'ich ta'lif fanlarida metodlardan va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, o'qituvchilarga metodik yordam berish uchun tumanlarda tashkil etilgan tayanch maktablar qoshida seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Fan oyligini yakunlash

Boshlang'ich ta'lif fan oyligi yakuniga bag'ishlangan festival o'tkaziladi. Ushbu tadbir maktab rahbariyati o'qituvchilar jamoasini yoshlarga bilim berishdagi qilgan mehnatlarining sarhisobini, ulardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qilingan ishlarni qadrlash va baholash maqsadida tashkil qilinadi:

- DTS va o'quv dasturlari asosida o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy hamkorligini targ'ib etish;
- Festivalda o'qituvchi va o'quvchilar iqtidori, qobiliyatini hamda mahoratini ko'rsatish;
- Fan oyligi davomida matabda o'tkazilgan turli tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashgan fan o'qituvchilari va o'quvchilarni taqdirlash;
- Fan oyligi davomida o'tkazilgan tanlovlarda g'olib bo'lgan, faol qatnashgan o'qituvchilarni tuman miqyosida ommalashtirish;

Fan oyliklar tom ma'noda har bir fan yo'nalishi bo'yicha jamiyatga, fan sohasiga berayotgan foydasini ko'rsata olish, har bir yo'nalishdagi o'qituvchilar ommasini jipslashtirish, fanlararo bog'liklikni ta'minlash hamda ta'lif mazmunining yuqori samaradorligini oshirishdek ulkan vazifani ado etishga undaydi.

Maktablarda o'tkazilgan fan oyliklari yuzasidan tayyorlangan hisobotlar to'planib, maktab metodbirlashmalarida saqlanadi.

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi o'ziga bir necha fanlarni (o'qish, ona tili, matematika, tarbiya, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, texnologiya) qamrab olganligi uchun, "Fan oyligi" doirasida har haftani bir fan haftaligi nomlash mumkin. Shu bois, boshlang'ich ta'lif fanidan o'tkaziladigan "Fan oyligi" tadbirlari quyidagicha rejalashtirish tavsiya etiladi:

2020 yil sentabr oyida birichi haftasida 4-kun vaqt berilgan. Birinchi hafta to'liq bo'limganli sababli, yana mustaqillik bayrami munosabati bilan bu haftani "**Tarbiya**" va "**Tabiat**" haftaligi deb nomlashimiz mumkin. Ushbu haftada "Vatan, Mustaqillik" tadbirlarini tashkil qilish mumkin. Ikkinci haftani ya'ni "**O'qish haftaligi**" (07.09 dan 12.09 gacha), uchinchi hafta "**Ona tili haftaligi**" (14.09dan 19.09gacha), to'rtinchi hafta "**Matematika haftaligi**" (21.09 dan 26.09gacha) joriy qilinsa, o'qituvchi va o'quvchi uchun qulay sharoit bo'ladi.

Fan oyligining birinchi haftasida (tarbiya va tabiat haftaligi):

- Ilg'or pedagogik texnologiya va interfaol metodlar asosida namunaviy darslar tashkil etish;
- Darslarda AKT vositalari yordamida internet tarmog'idan foydalaniib, fanga oid yangiliklarini o'quvchilarga yetkazish;

- O'quvchilar tomonidan tayyorlangan eng yaxshi ijodiy ishlari ko'rgazmasi ko'rik-tanlov tashkil etish va internet saytlarida yorilib borilishi kerak.

Tarbiya va tabiat haftaligida I-IV- sinflar uchun o'tkaziladigan tadbirlar, tanlovlari:

1. «Sen - qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostida bilimlar kunida fan oylikni e'lon qilish va mustaqillik darslarini o'tish;
2. Kichik saflanishda vatanni madh etuvchi she'rlarni ifodali o'qib berish musobaqasini tashkil qilish. Hamda internet tarmoqlarida yoritib borish;
3. «Davlat ramzları»ni ifodalovchi rasm yoki amaliy mehnatda ko'rsatish; Rasmlar tanlovi yoki kashtachilik, munchoqda aks ettirish;
4. Maktab binosining tashqi va ichki tomonlari, sinf xonalarini fan oyligiga mos ravishda bezash va tuman miqyosida “Mening matabimda boshlang'ich fan oyligi” nomli tanlov o'tkazish;
5. “Biz koronavirusni birgalikda yengamiz” mavzusida rasm chizish tanlovini o'tkazish;
6. Sinf soat darsida mustaqillik va tabiatni asrash mavzularida ochiq dars tashkil qilish;
7. Shanba kuni sinf o'quvchilarni diqqatga sazovar joylarga, tabiat qo'yning olib borish;(Bu jarayon ta'tildan qaytgan o'quvchilar sinfdoshlari bilan birga bo'lisch va mehrilarini uyg'otish ko'nikmalari shakllanadi.)
8. “Hashar - elga yarashar” aksiyasini o'tkazish; (Bunda o'quvchilar sinf xonasida jonli burchak, eng chiroyli xona gullari, “Bir o'quvchiga bir ko'chat” tadbirlarini olib borish mumkin.)

Ikkinchi haftada (o'qish haftaligi):

- Ilg'or pedagogik texnologiya va interfaol metodlar asosida namunaviy darslar tashkil etish;
- Darslarda AKT vositalari yordamida internet tarmog'idan foydalanib, fanga oid yangiliklarini o'quvchilarga yetkazish;
- O'quvchilar tomonidan tayyorlangan eng yaxshi ijodiy ishlari ko'rgazmasi burchagini tashkil etish va internet saytlarida yorilib borilishi kerak.

O'qish haftaligida I-IV- sinflar uchun o'tkaziladigan tadbirlar, tanlovlari:

1. “Ongli va tushinarli o'qish” tanlovini o'tkazish;
2. 1-tashabbus bo'yicha eng chiroyli sahma ko'rinish tashkil qilish; (Albatta sahma ko'rinish mavzusi darslikdan olinadi.)
3. 1-tashabbus.“Sen qudrat manbai,saodat maskani, jonajon O'zbekistonim!” shiori ostida o'quvchilar o'rtasida musiqa, she'rxonlik, teatr, raqs bo'yicha tadbir tashkil etish.
4. 4-tashabbus. O'quvchilaro'rtasida yoshlarni kitob o'qishga qiziqishini oshirish, kitob bilan do'st bo'lishga yo'naltiruvchi “Kitobim-oftobim”, “Men sevgan ertak qahramonlari” mavzularida kechalar va tanlovlardan tashkil etish;
5. Tuman, shahardan yetishib chiqqan bolalar shoiri, yozuvchi, taniqli insonlarni chaqirib, badiiy kechalar, suhbatlar tashkil qilish;
6. O'quvchilari o'rtasida “Oq xalat kiyganlar-bugungi kun qahramoni” mavzusida eng mazmunli yozilgan bayon tanlovini o'tkazish;
7. O'qish darslarida yuqori sinf o'qituvchilar bilan hamkorlikda ochiq darslar o'tish va kuzatish;

8. O'qituvchilar o'rtasida «**Eng namunali ko'rgazmali quroq**» tanlovini o'tkazish; (Maktab o'qituvchilari fanga oid ko'rgazmali qurollar yasashi va uni darslarda qo'llashi kerak. Bunda ko'rgazmali chiqishlarini tayyorlashda maktabdagagi barcha boshlang'ish sinf o'qituvchilarini jalb etish kerak.)

Uchinchi hafta (ona tili haftaligi):

- Ilg'or pedagogik texnologiya va interfaol metodlar asosida namunaviy darslar tashkil etish;
- Darslarda AKT vositalari yordamida internet tarmog'idan foydalanib, fanga oid yangiliklarini o'quvchilarga yetkazish;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga “**Ona tili**” fanini o'qitishda qo'yiladigan vazifalar:

- Boshlang'ich sing o'quvchilarda o'qish savodxonligini tinglab tushunish, mustaqil fikrini bayon qilish, og'zaki nutqini yozma nutqqa xatosiz aylantira olish ko'nikmasini shakllantirishdir. Boshlang'ich ta'lim fanlarni integratsiya qilish orqali ta'limda samaradorlikka erishish mumkin. Sahnani ya'ni darsni o'quvchiga bo'shatib berish orqali o'quvchini ko'proq gapirtirish;
- O'quvchilar xotira bilan ko'proq yod oladigan, ko'chirib yozadigan mashqlaridan ko'ra, hayot bilan bog'laydigan, fikrlash, nutq o'stirish, o'z mustaqil fikrini to'g'ri bayon qilishga qaratilgan mashqlar bilan topshiriqlar, mashlar asosida shug'ullantirish;

- O'quvchilarning inteliktual salohiyatini rivojlantirish uchun o'z ustida muntazam ravishda ishlashi va ijtimoiy tarmoqlardan ta'limga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda kreativ va mantiqiy fikrlashni oshirish kabilardan iborat.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

Ona tili haftaligida I-IV- sinflar uchun o'tkaziladigan tadbirlar, tanlovlar:

- O'quvchilarning yozuv savodxonliklarini va husnixatlarini tekshirish maqsadida sinflar kesimida diktant olish;
- O'quvchilar husnixati bo'yicha 2-3-4-sinflar uchun "Kimning xati chiroyli", 1-sinflar uchun "Ilmoqchalarni o'rgandik" tanlovini o'tkazish;
- 2020-2021 o'quv yili "O'qitishning zamonaviy shakllari, kreativ fikrlash va xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik" shiori ostida seminar treninglar tashkil etish;
- Ona tilimizning hayotimizdagi o'rni, jozibasi va tarixini o'rganish maqsadida sinflar kesimida "Onam alla aytgan til" tadbirini tashkil etish;
- O'quvchilarning chiroyli yozuv ko`nikmalari va bog`lanishli nutq malakalarini tekshirish maqsadida "Men karantin qoidalariga amal qilaman" mavzusida bayon va insholar tanlovini o'tkazish;
- Ona tili haftaligida har bir o'qituvchi "Ona tili fani uchun dars ishlanma, ko'rgazma va metodik tavsiyalar" taqdimotida qatnashish;

To'rtinchi haftada (matematika haftasi): Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish, ta'limda sifat va samaradorlikni o'rtirishi va modifikatsiya qilish bilan dolzarbdir. Shu bois, matematika darslarida hayotiy masalalardan foydalanib o'quvchilarni hayotga tayyorlash eng muhim bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Matematik kechalar, matematik tanlovlar tashkil etish, shu bilan birga faqat fan oyligi davomida emas, balki yil davomida o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tumanda joylashgan "**Mental arifmetika**" (to'garagi) ga jalb etish ishlarini ham rivojlantirib borish kerak.

Matematika haftaligida I-IV- sinflar uchun o'tkaziladigan tadbirlar, tanlovlari:

- Matematika haftaligi munosabati bilan “Matematika burchagi” tashkil etib, unga “Kim bilimdon?” viktorinasining tezkor savollarini joylashtirish;
- “Al-Xorazmiy izdoshlari” ertaligi orqali vatanimizda yashab, matematika faniga munosib hissa qo`shgan vatandosh olimlar ijodi bilan tanishtirish;
- “Kim bilimdon?” viktorinasining g’olibligini qo`lga kiritgan o`quvchilarni va matematika haftaligida eng faol qatnashgan sinflarni taqdirlash marosimini o`tkazish;
- Maktab matematika fan o`qituvchilari o`rtasida sog`lom raqobatni vujudga keltirish va ularning intellektual salohiyatlarini, ijodkorliklarini oshirish maqsadida “Eng namunali ko`rgazmali qurol – mening faoliyatimda” nomli ko`rik-tanlov o`tkazish;
- 4-sinf o`quvchilari o`rasidan matematik qobiliyatli o`quvchilarni aniqlash va o`quvchilarga matematika fanining o`qitilish holatini o`rganish maqsadida yuqori sinf o`qituvchilari bilan hamkorlikda ochiq darslar o’tish va kuzatish;
- Matematika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlash maqsadida 1-2-sinf o`quvchilari o`rtasida “Quvnoq raqamlar! – Happy numbers! – Бесёлыеномеры!” tadbirini tashkil etish;
- Kreativ fikrlovchi ustozlar “Eng yaxshi ommaviy axborot vositalarida chiqish”, “Eng istedodli pedagog”, “Eng yaxshi ta’lim muassasasi web saytdagi maqola, konfrensiyalarda” qatnashish;

Beshinchi haftada: Chiqish testi olinadi. Oylik davomida o’tkazilgan turli tadbir va musobaqalarida faol qatnashgan o`quvchilarni rag’batlantirib borish lozim. Fan oyligi yakunida o’tkazilgan tadbirlar bo’yicha tahlillar, xulosalar umumlashtirilib, metodbirlashma yig’ilishlarida o’rganlishi va kelgusida bajarilishi lozim bo’lgan vazifalar belgilab olish zarurdir.

“Sen - qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O’zbekistonim!” shiori ostida 2020-2021 o’quv yilining sentabr oyi - Boshlang’ich ta’lim fan oyligini o’tkazishda namunaviy chora-tadbirlar rejasি

№	Belgilangan tadbirlar	Muddati	Mas’ul shaxs
1-hafta. Tarbiya va tabiat haftaligi			
Uzoq muddatli ta’limdan so'ng, yangi o’quv yilini sog'lom muhitda tashkil etish			
1	Boshlang’ich ta’lim fanlariga kiruvchi (tarbiya, ona tili, o’qish, matematika, tabiatshunoslik, atrofimizdagi olam, tasviriy san’at, texnologiya) fanlarini sentabr oyida ochiq dars sifatida o’tkazish;	Sentab r oyida	Fan o`qituvchilari, Boshlang`ich sinf o`qituvchilari, boshlang`ich ta’lim metodbirlashma rahbari, Yoshlar yetakchisi;
2	Boshlang’ich ta’lim fanlariga kiruvchi (onatili, o’qish, matematika, tabiatshunoslik, atrofimizdagi olam, tasviriy san’at, texnologiya) fanlaridan to’garak mashg’ulot “Eng namunali to’garak ishlanmasi” tanlovini o’tkazish;	Sentab r oyida	Fan o`qituvchilari, Boshlang`ich sinf o`qituvchilari, boshlang`ich ta’lim metodbirlashma rahbari, Yoshlar yetakchisi;
3	« Sen – qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O’zbekistonim!» shiori ostida bilimlar kunida fan oylikni e’lon qilish va mustaqillik darslarini o’tish;		
4	Kichik saflanishda vatanni madh etuvchi she’rlarni ifodaligi o’qib berish musobaqasini tashkil qilish. Hamda internet tarmoqlarida yoritib borish;		
5	«Davlat ramzlari”ni ifodalovchi rasm yoki amaliy mehnatda ko’rsatish; Rasmlar tanlovi yoki kashtachilik, munchoqda aks ettirish;	1- hafta davomi da	
	Maktab binosining tashqi va ichki		

6	tomonlari, sinf xonalarini fan oyligiga mos ravishda bezash va tuman miqyosida “Mening maktabimda boshlang’ich fan oyligi” nomli tanlov o’tkazish;	(o'tish kunini o'qituv chi o'zi belgila ydi)	
7	“Biz koronavirusni birgalikda yengamiz” mavzusida rasm chizish tanlovini o’tkazish;		
8	Sinf soat darsida mustaqillik va tabiatni asrash mavzularida ochiq dars tashkil qilish;		
9	Shanba kuni sinf o’quvchilarni diqqatga sazovar joylarga, tabiat qo’yniga olib borish; (Bu jarayon ta’tildan qaytgan o’quvchilar sinfdoshlari bilan birga bo’lish va mehrlarini uyg’otish ko’nikmalari shakllanadi.)		
10	“Hashar – elga yarashar” aksiyasini o’tkazish; (Bunda o’quvchilar sinf xonasida jonli burchak, eng chiroyli xona gullari, “Bir o’quvchiga bir ko’chat” tadbirlarini olib boorish mumkin.)		

2-hafta. O'qish haftaligi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar mahoratini namoyish etish.

11	DTS asosida o’quvchilar bilim samaradorligi monitoringini tekshirish bo'yicha kirish testi olish; (Testda barcha fanlarni qamrab oladi.)		
12	“Ongli va tushunarli o’qish” tanlovini o’tkazish;		
13	1-tashabbus bo'yicha “Eng chiroyli		

	sahna ko'rinish" tashkil qilish; (Albatta sahna ko'rinish mavzusi darslikdan olinadi.)	2- hafta davomi da (o'tish kunini o'qituv chi o'zi belgila ydi)	
14	"Sen qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O'zbekistonim!" shiori ostida o'quvchilar o'rtasida musiqa, she'rxonlik, teatr, raqs bo'yicha tadbir tashkil etish;		
15	4-tashabbus.O'quvchilar o'rtasida yoshlarni kitob o'qishga qiziqishini oshirish, kitob bilan do'st bo'lishga yo'naltiruvchi "Kitobim-oftobim", "Men sevgan ertak qahramonlari" mavzularida kechalar va tanlovlardan tashkil etish; Tuman, shahardan yetishib chiqqan bolalar shoiri, yozuvchi, taniqli insonlarni chaqirib, badiiy kechalar, suhbatlar tashkil qilish;		
16	O'quvchilari o'rtasida "Oq xalat kiyganlar-bugungi kun qahramoni" mavzusida eng mazmunli yozilgan bayon tanlovini o'tkazish;		
17	O'qituvchilar o'rtasida «Eng namunali ko'rgazmali quroq» tanlovini o'tkazish;		

3-hafta. Ona tili haftaligi.

O'qituvchi va o'quvchilar iqtidorli qobiliyatini namoyish etish.

	O`quvchilarning yozuv savodxonliklarini va husnixatlarini tekshirish maqsadida sinflar kesimida diktant olish;		
19	O'quvchilar husnixati bo'yicha 2-3-4-sinflar uchun "Kimning xati chiroyli", 1-sinflar uchun "Ilmoqchalarni		

	o'rgandik" tanlovini o'tkazish;		
20	2020-2021 o'quv yili "O'qitishning zamonaviy shakllari, kreativ fikrlash va xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik" shiori ostida seminar treninglar tashkil etish;	3- hafta davomi da (o'tish kunini o'qituv chi o'zi belgila ydi)	
21	Ona tilimizning hayotimizdagi o'rni, jozibasi va tarixini o'rganish maqsadida sinflar kesimida "Onam alla aytgan til" tadbirini tashkil etish;		
22	O'quvchilarning chiroyli yozuv ko`nikmalari va bog`lanishli nutq malakalarini tekshirish maqsadida "Men karantin qoidalariga amal qilaman" mavzusida bayon va insholar tanlovini o'tkazish;		
23	Ona tili haftaligida har bir o'qituvchi "Ona tili fani uchun dars ishlanma, ko'rgazma va metodik tavsiyalar" taqdimotida qatnashish;		

4-hafta. Matematika fani haftaligi.

O'qituvchi va o'quvchilar iqtidorli qobiliyatini namoyish etish.

	Matematika haftaligi munosabati bilan "Matematika burchagi" tashkil etib, unga "Kim bilimdon?" viktorinasining tezkor savollarini joylashtirish;	4- hafta davomi da (o'tish kunini o'qituv chi o'zi belgila ydi)	
24	"Al-Xorazmiy izdoshlari" ertaligi orqali vatanimizda yashab matematika faniga munosib hissa qo'shgan vatandosh olimlar ijodi bilan tanishtirish;		
25	Maktab matematika fan o'qituvchilari o`rtasida sog`lom raqobatni vujudga keltirish va ularning intellektual salohiyatlarini, ijodkorliklarini oshirish		

	maqsadida “Eng namunali ko`rgazmali qurol – mening faoliyatimda” nomli ko`rik-tanlov o`tkazish;		
27	4-sinf o`quvchilari o`rasidan matematik qobiliyatli o`quvchilarni aniqlash va o`quvchilarga matematika fanining o`qitilish holatini o`rganish maqsadida yuqori sinf o'qituvchilari bilan hamkorlikda ochiq darslar o'tish va kuzatish;		
28	Matematika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash maqsadida 1-2-sinf o`quvchilari o`rtasida “Quvnoq raqamlar! – Happy numbers! – Бесёлые номеры! ” tadbirini tashkil etish;		
29	Kreativ fikrlovchi ustozlar- “Eng yaxshi ommaviy axborot vositalarida chiqish”, “Eng istedodli pedagog”, “Eng yaxshi ta’lim muassasasi web saytdagi maqola, konfrensiyalarda” qatnashish;		

5-hafta. Fan oyligini yakunlash

30	DTS asosida o`quvchilar bilim samaradorligi monitoringini tekshirish bo'yicha chiqish testi olish; (Testda barcha fanlarni qamrab oladi.) Fan oyligi miqyosida o`tkazilgan tadbirlar, tanlovlardan bo'yicha g`olib o`quvchilar, sinflarni aniqlab, taqdirlash va hisobot tayyorlash.	5-hafta davomi da (o'tish kunini o'qituvchi o'zib belgila ydi)	
----	---	---	--